

MAKTABDA TIL NORMALARINI O‘TISH (FONETIK, GRAMMATIK, LISONIY NORMA)

Xoliqova Matluba Mardon qizi

Bulung‘ur tuman MMTBga qarashli 20-umumta ‘lim maktabi

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabda til normalarini o‘tish (fonetik, grammatik, lisoniy norma) va tilning kishilar o‘rtasidagi aloqa va fikr almashish qoroli ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, maktab, grammatika, adabiy til normasi.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о прохождении языковых норм в школе (фонетических, грамматических, языковых норм) и о том, что язык является инструментом общения и обмена идеями между людьми.

Ключевые слова: родной язык, школа, грамматика, норма литературного языка.

Annotation. This article discusses the transition of language norms at school (phonetic, grammatical, linguistic norm) and the fact that language is a weapon of communication and exchange of ideas between people.

Key words: mother tongue, school, grammar, literary language norm

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash uchun uning bor imkoniyatlarini bilish har bir o‘zbek uchun muhim vazifa va burch hisoblanadi. Ona tili merosidan adabiy til haqidagi bilimlar, til normalari haqidagi tushunchalar bilan xalqimizni, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy madaniyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizni har tomonlama savodxon qilishda shunchalik qudratli ma’rifiy quroqla ega bo‘lamiz. Adabiy til normalari til vakillari doirasida har xillikka, tushunmovchilikka va tilning obro‘sizlanishiga barham beruvchi quroq hamdir. Normalar tilning taraqqiyot belgilarini o‘zida saqlovchi va keyingi avlodga yetkazuvchi, madaniyat sivilizatsiyasining vositachisidir. Maktab ona tili kursi o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni o‘quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga yetkazishga xizmat qiladi. Maktabda o‘quvchilar onaa tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o‘ta zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi.

Bugungi kunda o‘zbek tilining turli sathlarini tadqiq qilish bo‘yicha bir qator yutuqlarga erishilgan, qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Badiiy matnlarda til birliklarining qo‘llanilishi, asar muallifining madaniy-ma’naviy dunyoqarashiga, tafakkuri, o‘zini o‘rab turgan obyektiv voqelik faktlariga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi [1].

Har bir xalqning milliy o‘zligi, eng avvalo, uning tilida zuhur etadi. O‘zbek tilining tabiatini va mantig‘ida xalqimizning sajiyasi, saviyasi, idrok zahirasi va tafakkur tarzi o‘z tajassumini topgan. Aslida odamni odam qilgan, uni tamaddun bilan qovushtirgan, madaniyat arshiga olib chiqqan alomat omil ham, avvalo, til ekanligi e’tirof etilgan haqiqatlardandir. Adabiy tilni ko‘prikka o‘xshatishimiz ham shunda. Til muhim ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan. Bu ehtiyoj insonlarning bir-biri bilan muomala qilishi, fikr almashishi va bir-birini tushunishga harakat qilishidir. Bir til aynan bir shaxsda emas, balki butun bir jamiyatda mavjud bo‘ladi. Tilning jamiyat yaratgan va uning taqdiri ham shu bilan bog‘liq.

Til o‘qitishda grammatikaning o‘rnii eng ko‘p munozaraga sabab bo‘luvchi mavzu hisoblanadi. Tildan malakali foydalanish uchun nafaqat uning grammatik qoidalarini, balki, qoidalar jonli muloqot jarayonida qanday qo‘llanishini bilish ham kerak bo‘ladi.

Maktab ta’limi hozirgi ona tili zaminida qurilgan. Hozirgi ona tilida amal qilinayotgan qonuniyatlar qisqa bir davrning mahsuli emas, aksincha, ular tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasidir. Tilning hozirgi taraqqiyotini to‘g‘ri tushunish uning tarixini o‘rganishni taqozo etadi [2].

Ona tili merosidan adabiy til haqidagi bilimlar, til normalari haqidagi tushunchalar bilan xalqimizni, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy madaniyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizni har tomonlama savodxon qilishda shunchalik qudratli ma’rifiy quroqla ega bo‘lamiz. Adabiy til normalari til vakillari doirasida har xillikka, tushunmovchilikka va tilning obro’sizlanishiga barham beruvchi qurol hamdir. Normalar tilning taraqqiyot belgilarini o‘zida saqlovchi va keyingi avlodga yetkazuvchi, madaniyat svilizatsiyasining vositachisidir.

So‘nggi yillarda grammatika til o‘qitish dasturlarida yana o‘z o‘rniga bo‘ldi. Tilni va uning grammatikasini o‘rganishda, avvalo, maktab, yetuk kadrlar, malakali metodistlar va darsliklarning o‘rnii beqiyos.

Tilimizni o‘z holicha saqlab qolishimizga, soddarroq qilib aytganda to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuv savodxonligiga erishishimizga to‘sinqilik qilay otgan ko‘plab omillar mavjud. Til o‘qitishda grammatikaning o‘rnii eng ko‘p munozaraga sabab bo‘luvchi mavzu hisoblanadi. Tildan malakali foydalanish uchun nafaqat grammatik qoidalarni, balki, qoidalar jonli muloqot jarayonida qanday qo‘llanishini ham bilish kerak bo‘ladi.

Til normasini ilmiy nuqtayi nazardan o‘zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan assoslashning muhim shartlaridan biridir. Chunki, “til normasi nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir”.

“Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiyligi holatini, undagi turg‘un va noturg‘un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish, adabiy-normativ tavsiyalar berish aslo mumkin emas”.

O‘zbek tili nutq madaniyatiga bag‘ishlangan ishlarda gap ko‘pincha nutqimizda uchraydigan kamchiliklar haqida boradi. Lisoniy birliklarni xuddi shu shaklda qo‘llash kamchilik ekanligini nimaga asoslanib aytamiz? Tilshunoslikda mana shunday qo‘llanishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatuvchi ma’lum o‘lchov bo‘lishi kerak. Bu o‘lchov adabiy til normasidir. “Norma bu til birliklarini o‘zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til qurilishining amalda bo‘lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til sistemasining yagonaligiga erishish yo‘lida odamlarga biron variantini ma’qul ko‘rish, boshqasidan voz kechish istagini tug‘diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo‘lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko‘tarilib, mustahkamlanib boradi [3].

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taaassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Til jamiyat a’zolarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta’sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o‘zaro munosabati, his-tuyg‘ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o‘rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Til kishilik jamiyati shakllanishining zaminini tashkil etadi. Til xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, olam sinoatlarini anglash va kelajak avlodlarga anglatishga imkon beradigan, qavmning qalbi qa‘ridagi qiyossiz qudratni sog‘lom saqlaydigan bemisl bir vositadir.

Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aratashuv vositasi, fikrlash mahsuli hisoblanadi. Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til me’yorlarini egallash, ulardan unumli va o‘rinli foydalanishdir. Hozirgi adabiy til me’yorlariga rioya qilib tuzilgan nutq aniq, to‘g‘ri va ta’sirchan holda tinglovchiga yetib boradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, demak, norma deganda til unsurlarining xalq o‘rtasida ko‘pchilikka ma’qul bo‘lgan variantini qo‘llash tushuniladi. Shuning uchun ham norma tushunchasi til qurilishi, umuman til taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, tilda turg‘unlik kasb etadi va uzoq muddat yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Siddiqova Sh. Xalq og‘zaki ijodiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida. Xalqaro ilmiy-konferensiya materiallari. 2015. B. 126-127.
2. Roziqov O va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent “Yangi asr avlod” 2005. B. 72.
3. Adabiy til normalari. Arxiv.uz.